

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan keng imkoniyatlar to‘g‘risida

T/r	Imtiyoz va yengilliklar mazmuni	Huquqiy asos	Batafsil
1	Qiymati 100 ming AQSH dollaridan 500 ming AQSH dollarigacha bo‘lgan investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchilar uchun yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratiladi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-10-son Farmoni, 27.01.2025-y.	X
2	Milliy valyutada loyihalarini moliyalashtirish uchun yillik 14 foiz stavkada, 7 yilgacha muddatga, 2 yillik imtiyozli davr bilan kreditlar ajratiladi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-10-son Farmoni, 27.01.2025-y.	X
3	Kunjut va mosh ekinlarini yetishtirish uchun yillik 14 foiz stavkada 6 oylik imtiyozli davr bilan 12 oy muddatga kreditlar sug‘urta ta’minoti bilan garovsiz ajratiladi.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 331-son qarori, 27.05.2025-y.	https://lex.uz/docs/7545508
4	Sanoat korxonalarining foydalangan elektr energiyasi narxlariga chegirmalar beriladi.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 194-son qarori, 31.03.2025-y.	https://lex.uz/docs/7458466
5	Majburiyatlarni to‘liq bajargan sanoat zonalari ishtirokchilari bino-inshootlarni belgilangan muddatidan qat’iy nazar xususiylashtirishi mumkin. Shuningdek, xususiylashtirilayotgan yer uchastkalari narxi boshqa hududlarga nisbatan 10 baravarga pasaytirilgan.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-248-son qarori, 4-bandi, 14.08.2025-y.	https://lex.uz/docs/7685398
6	Noruda foydali qazilmalarni qayta ishlashni tashkil qilgan tadbirkorlarga yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun to‘lovlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoni beriladi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-248-son qarori, 4-bandi, 14.08.2025-y.	https://lex.uz/docs/7685398

T/r	Imtiyoz va yengilliklar mazmuni	Huquqiy asos	Batafsil
7	<p>Barcha shahar va tumanlarda yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportbop va import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqaruvchilarga “Nukus” erkin iqtisodiy zonasi ishtirokchisi maqomi beriladi. Bunda tadbirkorlarga qulay soliq va bojxona imtiyozlari tatbiq qilinadi.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-66-son qarori, 3 va 10-bandlari, 09.02.2024-y.</p>	<p>https://lex.uz/docs/6797659</p>
8	<p>2031-yil 1-yanvarga qadar Mo‘ynoq tumanidagi mahalliy sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohalaridagi tadbirkorlik subyektlariga foyda solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni, ijtimoiy soliqni va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini 1 foiz miqdoridagi soliq stavkalari bo‘yicha;</p> <p>yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida to‘laydi.</p>	<p>Soliq kodeksi, 483-modda 16-qism</p>	<p>https://lex.uz/docs/4674902</p>
9	<p>2028-yil 1-yanvarga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasining barcha tumanlarida (<i>Nukus shahridan tashqari</i>) faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha soliq stavkalari 2 baravar pasaytirilgan;</p> <p>ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida to‘lanadi.</p>	<p>Soliq kodeksi, 483-modda 39-qism</p>	<p>https://lex.uz/docs/4674902</p>
10	<p>Tadbirkorlar tomonidan qiymati 50 milliard so‘mdan ortiq investitsiya loyihalari amalga oshiriladigan bo‘lsa, zarur infratuzilma obyektlari davlat tomonidan yaratib beriladi.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-25-son Farmoni, 2-bandi, 23.11.2021-y.</p>	<p>https://lex.uz/docs/5739825</p>

T/r	Imtiyoz va yengilliklar mazmuni	Huquqiy asos	Batafsil
11	<p>2027-yil 1-yanvarga qadar auksionda sotib olingan davlat ko'chmas mulk obyektlari qiymatini 7-10 yilga bo'lib to'lash yohud 3 oy ichida to'liq to'langanda 25 foiz chegirma beriladi.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-264-son qarori, 1-bandi, 30.05.2022-y.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-10-son Farmoni, 27.01.2025-y.</p>	<p>https://lex.uz/docs/6039685</p>
12	<p>Sovitkichli sig'implarni qurish va jihozlash xarajatlarining 30 foizi (<i>biroq 150 mln so'mdan ortiq bo'lmagan qismi</i>) hamda qish va bahor oylarida sovitkichli sig'implarning elektr energiyasi xarajatlarining 50 foizi qoplab beriladi.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 632-son qarori, 29.11.2023-y.</p>	<p>https://lex.uz/docs/6680539</p>
13	<p>3 yulduzli toifaga aylantiriladigan mavjud mehmonxonalarining har bir xonasiga 20 million so'mdan subsidiya ajratiladi.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 287-son qarori, 16.05.2024-y.</p>	<p>https://lex.uz/docs/6930272</p>
14	<p>2026-yil 31-dekabrga qadar Chimboy, Xo'jayli, Beruniy va Nukus tumanlarida quriladigan mehmonxona va kichik otellarning har bir xonasiga 10 milliondan 20 milliongacha subsidiya ajratiladi.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 919-son qarori, 30.12.2024-y.</p>	<p>https://lex.uz/docs/6980553</p>
15	<p>2027-yil 1-yanvarga qadar Amudaryo, Ellikqal'a, Mo'ynoq va Taxtako'pir tumanlarining tog'li va cho'l hududlarda turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlarga 80 milliondan 100 million so'mgacha subsidiya ajratiladi.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 383-son qarori, 19.06.2025-y.</p>	<p>https://lex.uz/docs/7584573</p>

T/r	Imtiyoz va yengilliklar mazmuni	Huquqiy asos	Batafsil
16	Qoraqalpog‘iston Respublikasida qiymati 100 million AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan sun‘iy intellekt infratuzilmasini yaratish loyihalari bo‘yicha investorlarga imtiyoz va preferensiyalar maxsus paketi taqdim etiladi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-189-son Farmoni, 22.10.2025-y.	https://lex.uz/docs/7789403
17	Qoraqalpog‘iston Respublikasida tumanlar markazlarini olis hududlar bilan bog‘lovchi shahar atrofi yoki viloyat ichidagi shaharlararo norentabel muntazam avtobus va mikroavtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararning 40 foizgacha miqdori qoplab beriladi.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 725-son qarori, 14.11.2025-y.	https://lex.uz/docs/7842967
18	Tuzni qayta ishlash uchun tashkil etiladigan “Kungrad Salt Free Zone” sanoat zonasida investitsiya loyihalarini amalga oshirishni boshlagan tadbirkorlarga 5 yil muddatga “Nukus” erkin iqtisodiy zonasi ishtirokchisi maqomi beriladi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-333-son qarori, 03.11.2025-y.	https://lex.uz/docs/7812318
19	“Kungrad Salt Free Zone” sanoat zonasida yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yib, mahalliy aholini ishga qabul qilish uchun qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etgan investorlarga o‘qitish bilan bog‘liq barcha xarajatlari qoplab beriladi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-333-son qarori, 03.11.2025-y.	https://lex.uz/docs/7812318
20	Qoraqalpog‘iston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda litsenziyaga ega bo‘lgan turoperatorlarga 2029-yil 1-yanvarga qadar o‘z ehtiyojlari uchun, istisno tariqasida, ekstremal turlarni tashkil qilish uchun dvigatel hajmi 2,4 litrdan kam bo‘lmagan yuqori o‘tish qobiliyatiga ega transport vositalari import qilinayotganda bir kalendar yilda soddalashtirilgan tartibda 5 tagacha bo‘lgan transport vositasini sertifikatlashga ruxsat etiladi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-70-son qarori, 21.02.2026-y.	https://lex.uz/uz/docs/8066619

T/r	Imtiyoz va yengilliklar mazmuni	Huquqiy asos	Batafsil
21	<p>Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm va xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash maqsadida maydoni besh ming kvadrat metr dan yuqori bo‘lgan savdo komplekslari va mehmonxona (<i>joylashtirish vositalari</i>) xizmatlari bo‘yicha mazkur hududda faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlariga 2027-yil 1-yanvardan 2040-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda yer solig‘i va mol-mulk solig‘i stavkalari 90 foizga kamaytirilgan holda qo‘llaniladi.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-70-son qarori, 21.02.2026-y.</p>	<p>https://lex.uz/uz/docs/8066619</p>
22	<p>2028-yil 1-yanvarga qadar: (a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida joylashgan tijorat banklarining balansida bo‘lgan mol-mulk obyektlarini bozor narxida qayta baholab, 10 yil davomida foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri realizatsiya qilinadi; (b) realizatsiya qilingan mol-mulk obyektlari bo‘yicha tuzilgan oldi-sotdi shartnomalariga muvofiq to‘lovlar olti oy ichida to‘liq to‘langanda shartnoma qiymatining 25 foiziga teng miqdorda chegirmalar beriladi.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-70-son qarori, 21.02.2026-y.</p>	<p>https://lex.uz/uz/docs/8066619</p>

“Qoraqalpog‘iston Respublikasida loyihalarni amalga oshirish markazi” loyiha ofisi

Aloqa uchun:

Sanoat yo‘nalishi: +998 (61) 222-74-25

Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi: +998 (61) 222-74-21

Turizm yo‘nalishi: +998 (61) 222-74-34